



Gulmira ABDULLAEVA,
Ajiniyoz nomidagi NDPI assistenti
E-mail:abdullaevag2511@gmail.com

Ajiniyoz nomidagi NDPI dotsenti, PhD Sh.Aldasheva taqrizi asosida

FEATURES OF THE FORMATION OF EXPRESSIVE AND EXPLANATORY READING SKILLS IN ELEMENTARY GRADES

Annotation

The formation of expressive and explanatory reading skills among primary school students serves as the basis for the development of their speech culture and public speaking skills. This not only contributes to the formation of speech competencies of a younger student, but also increases his interest in studying the subject as a whole. Paying attention to intonational and lexical aspects forms the basis of the methodology for the formation of expressive and explanatory reading in elementary grades. It is advisable to analyze syntactic and morphological tools at higher levels of education.

Key words: Elementary school, expressive reading, explanatory reading, reader, pronunciation, education, Uzbek language.

ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ ВЫРАЗИТЕЛЬНОГО И ПОЯСНИТЕЛЬНОГО ЧТЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация

Формирование навыков выразительного и пояснительного чтения у учащихся начальных классов служит основой для развития у них речевой культуры и ораторского мастерства. Это не только способствует формированию речевых компетенций младшего школьника, но и повышает его интерес к изучению учебного предмета в целом. Уделение внимания интонационным и лексическим аспектам составляет основу методики формирования выразительного и пояснительного чтения в начальных классах. Синтаксические и морфологические средства целесообразно подвергать анализу на более старших ступенях обучения.

Ключевые слова: Начальный класс, выразительное чтение, пояснительное чтение, читатель, произношение, образование, узбекский язык.

IFODALI VA IZOHLI O'QISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING BOSHLANG'ICH SINFLARDAGI XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni ifodali va izohli o'qishga o'rgatish ko'nikmalarini shakllantirish ularda nutq madaniyati, notiqlik mahorati rivojlanishining asosi bo'lib xizmat qiladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchining nafaqat nutqiy kompetensiyalarni, balki butun fanni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Intonatsiya va leksik jihatlariga e'tibor qaratish boshlang'ich sinflardagi ifodali va izohli o'qish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasining asosi bo'ladi. Sintaktik, morfologik vositalar yuqori sinflarda tahlilga tortilishi maqsadga muvofiq.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf, ifodali o'qish, izohli o'qish, o'quvchi, talaffuz, ta'lim, o'zbek tili.

Kirish. Tildan maqsadli foydalanish, uning amaliy samaradorligini oshirish nutqning kommunikativ sifatlaridan qay darajada foydalanilganligiga bog'liq bo'ladi. Manbalarda madaniyatli nutq belgisi sifatida aniqlik, soflik, mantiqiylik, boylik, jo'yallik qatorida ifodaviylik ham keltiriladi. Ifodaviylik nutqning muhim kommunikativ sifatlaridan biri hisoblanadi va uning ta'sirchanligini ta'minlaydi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarida ifodali va izohli o'qish ko'nikmalari shakllanishida asosiy vositalar sifatida ohang va leksik vositalardan foydalaniladi. Aslida, ifodaviylikni ta'minlovchi vositalar xilma-xil bo'lib, ulardan yuqori sinf o'quvchilari tahsilida muvaffaqiyat bilan foydalanish mumkin. Ular qatoriga frazeologik, fonetik, grafik, stilistik va sintaktik vositalarni kiritish mumkin. Ohang bilan bog'liq vositalar haqida quyidagi fikrlarni keltirish o'rinli bo'ladi: "Ifodaviylikning ohang bilan bog'liq turi tinglovchining axborot qabul qilish qobiliyatiga hissiy ta'sir qiladi, so'zlovchining emotsional holatini ifoda

etadi" [1]. Ifodaviylikning ohang bilan bog'liq turi baland-pastlik, ritm, mantiqiy urg'u, to'xtam kabilarni qamrab oladi. Sanalgan ifodaviylikni ta'minlovchi vositalar kichik maktab yoshidan shakllantirilishi lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ma'lumki, tinglovchiga yetkazilmoqchi bo'lgan fikrni tushunarli va obrazli yetkazish uning qanchalik jozibador va ta'sirchan ekanligiga bog'liq bo'ladi. "Til birliklarini nutqning turli ko'rinishlarida bajaradigan vazifasi, eng avvalo, so'zlovchi yoki yozuvchining kommunikativ maqsadiga bog'liq bo'ladi. Bunda nutq yo'naltirilgan shaxsga birgina ma'lumot yetkazishgina emas, balki unga ta'sir etish ham nazarda tutiladi" [2]. Ifodali va izohli o'qish ko'nikmalari boshlang'ich sinflarda o'qish faoliyatini endigina boshlagan o'quvchilarda mashq qilinishi yaxshi samara beradi. Ta'lim jarayonida bu ko'nikma yanada takomillashtirib boriladi. Badiiy asarlar bunda eng muhim vosita vazifasini bajaradi. Chunki badiiy asarda hayotning o'zi aks etishi mutaxassislar tomonidan bir nechta

manbalarda e'tirof etilgan. Darhaqiqat, badiiy asarlarda lisoniy vositalar nolisoniylar vositalari bilan qorishiq holda namoyon bo'ladi. Tabiiyki, bunda nutqning badiiy asar qahramonlarining ruhiy holati, dunyoqarashi, bilim darajasi, yoshi, jamiyatda tutgan mavqei, tushib qolgan vaziyati kabilar hisobga olinishi lozim. Deylik, tushkun kayfiyatdagi qahramonning nutqini ko'tarinki kayfiyatda o'qib bo'lmaydi. Aksincha, quvnoq kayfiyatdagi qahramon holati bir maromdagi nutq bilan berilishi mantiqsizlikka, asar voqealarini noto'g'ri talqin qilishga sabab bo'ladi. Ona tili va o'qish fanlaridan boshlang'ich sinf o'quvchilari egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari ham fikrimizni dalillaydi. Umuman, davlat ta'lim standartlariga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish texnikasi bo'yicha talablar quyidagicha: "tovushlarni to'g'ri talaffuz etish; so'zlarni to'g'ri o'qish; gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va ifodali o'qish; gapdagi tinish belgilarini talaffuzda aks ettirish; sanash va ajratish ohanglaridan to'g'ri foydalanish; so'z urg'ulariga rioya qilish; ohangga rioya qilish; ilmiy atama va ramzlarni to'g'ri talaffuz etish" [3] kabilar. Ko'rinish turibdiki, badiiy asar matnini o'qish jarayonida ohangga rioya qilish asar voqealarini to'g'ri anglashga yordam beradi. Og'zaki nutqning to'g'ri, aniq va ravon bo'lishi uning tushunarligini, ta'sirchanligini ta'minlaydi.

Joriy o'qish darsliklarida keltirilgan badiiy asarlarda o'quvchilarning ifodali va izohli o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligi bilan ajralib turadi. Bunda ta'lim jarayonida pedagogning ko'rsatmalari ham muhim o'rin tutadi. Masalan, Ezop masallari tahsilida ifodali va izohli o'qish asar mohiyatini to'g'ri anglashga yordam beradi. Jumladan, "Tovuq bilan tulki" masalidagi "Baland daraxt shoxiga qo'nib, qaqag'layotgan tovuqning tovushi butun o'rmonga taralib, ochlikdan sillasi qurigan tulkining e'tiborini tortibdi" shaklidagi boshlanmasida tinish belgilarining ahamiyati hisobga olib talaffuz qilinganda, masal qahramonlari bo'lgan tulki va tovuqning holati yanada aniqroq tasavvur qilish imkonini beradi. Bunda har bir vergul og'zaki nutqda kichik to'xtam orqali ifodalanadi. Parchadagi birinchi to'xtam tovuqning holatini (qayerda va qanday o'rinishganligi va nima bilan mashg'ulligini ifodalovchi so'zlarni ajratish uchun) ta'kidlab ko'rsatish uchun zarur bo'lsa, ikkinchi to'xtam tulkining ochlikdan sillasi quriganligini ifodalovchi qismga tinglovchining tayyorlash uchun kerak bo'lgan. Shu o'rinda matnning o'qiyotgan ta'lim jarayoni ishtirokchisi (xoh o'qituvchi, xoh o'quvchi bo'lsin) ta'sirchanlikni oshirish uchun hayvonlarni ifodalovchi so'zlarga kichraytirish-erkalash shakllarini qo'shish yaxshi samara bergan bo'lardi. Xuddi shuningdek, masalni o'qish jarayonida ovoznining past-balandligi, ritm kabi ohang bilan bog'liq bo'lgan vositalardan samarali foydalanish mumkin. Masalan, tulkining itlar to'dasi kelayotganligi va ular bilan "tinchlik bitimi" haqida suhbatlashish lozimligi haqidagi fikriga javobi quyidagicha shakllantirilgan:

Yo'q, yo'q. – dedi Tulki. – Men ketishim kerak, itlar hali tinchlik bitimi haqida eshitmagan bo'lishlari mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. So'zning takrori o'zbek tilida maxsus ohang bilan talaffuz qilinadi. Ayniqsa, takrorlanayotgan so'z fapda so'z-gap vazifasida kelsa, ohang ta'sirchanligi yanada oshadi. Yuqorida keltirilgan gapda suhbatdoshning fikrini inkor qiluvchi so'z gap ikki marta takrorlangan va inkorning nihoyatda qat'iy ekanligini ifodalagan. "Takror – asosan, badiiy nutqqa xos

sintaktik-stilistik ifoda usullaridan biri. Til yoki nutq birliklarini ataylab, aynan takrorlash orqali muallif o'z fikrining ta'sir kuchini oshirishga, his-tuyg'ularini bo'rttirib ifodalashga erishadi" [4]. Ma'lum bo'ladiki, so'zning takrori mavjud bo'lgan jumla va gaplarni odatiy, me'yoriy ohang bilan talaffuz qilib bo'lmaydi. Shu sababli o'quvchilarda bu kabi matnlarni alohida ohang bilan talaffuz qilish ko'nikmalari shakllantirishga pedagog ilk maktab yoshlaridagi tahsil davridan kirishishi talab etiladi. Nazarimizda, 10-11 yoshli bolalarda e'tiroz ma'nosini ifodalovchi so'zlar takrorini o'qishda ovozni boshqa so'zlarga nisbatan ko'tarish va ta'kid ohangini qo'shish ko'nikmalari shakllangan bo'ladi. Ohang she'riy yo'lda bitilgan matnlarda nihoyatda muhim. Ammo ohangning ahamiyatini nasriy asarlar matnini o'qish jarayonida ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Ohangni o'z o'rniga qo'yib matnning o'qish uning ifodaviyligini oshiradi.

Shu o'rinda izohli o'qish tushunchasi ham matnning o'qish jarayonida uning mohiyatini tinglovchilarga oson yetkazishda juda zarur bo'lgan element sifatida qayd etish lozim. Bu, ayniqsa, tushunilishi murakkab bo'lgan, o'quvchi yoshiga mos bo'lmagan semantik ko'lamni qamrab olgan so'zlarda foydalidir. Masalan, yuqorida keltirilgan parchadagi "tinchlik bitimi" tushunchasi o'quvchilarning yoshi nuqtayi nazaridan biroz izohtalab. Shu sababli "tinchlik bitimi" birikmasi qo'llangan o'rinlarda "o'zaro urush qilmaslik haqida kelishuv, ahdlashuv" kabi izoh keltirib o'tish lozim bo'ladi. Ta'kidlash lozimki, pedagog bu kabi o'rinlarda o'z tajribasiga tayanishi, o'quvchi uchun tushunarsiz bo'lgan so'z va jumalarni aniqlashi zarur bo'ladi. Chunki hali-hanuz o'zbek tilida foydalanuvchining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda lug'at yaratish an'anasi shakllanmadi. Bu jarayonlar hali eng ibtidoiy bosqichida, deyishimiz mumkin. Shu sababli o'zbek leksikasi o'quvchilarning yoshi yoki tilni bilish darajasi kesimida tarkibiy qismlarga ajratilmadi. Deylik, 7-11 yoshli tildan foydalanuvchi bilishi lozim bo'lgan so'z va birikmalarni qamrab oluvchi leksikografik manbalar yetarli darajada yaratilmadi. Tabiiyki, bunday ta'lim vositalari boshlang'ich sinf o'quvchilari qo'lga yetib borganicha yo'q. "Ta'lim – ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek, ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon"[5]ligi tufayli uni samarali tashkil etish pirovardida mamlakatning moslashuvchan, malakali kadrlar bilan ta'minlanishiga olib keladi. Ta'lim jarayonini rejalashtirish va maqsadlarni aniqlashtirish tizimni optimallashtirishda muhim hisoblandi. Optimallashtirish esa tushunilishi murakkab bo'lgan so'z va jumalar mohiyatini anglashga vaqt sarflamaslikni ham o'z ichiga oladi. Albatta, darslik kabi ta'limiy vositalarda keltirilgan matnlarning tushunilishi murakkab bo'lgan so'z va jumalarining izohi matndan keyin ham keltirilishi mumkin. Ammo, yuqorida qayd etilganidek, bunday izohlar darslik yaratuvchilarining shaxsiy tajribalariga asoslangan. Muayyan asar yoki muallif tilini o'rganish va tushuntirishga qaratilgan qator leksikografik ishlar amalga oshirilgan. Bu borada ayrim o'quv lug'atlari ham tayyorlangan. O'quv lug'atlari zarurligi haqida ko'p gapirib va yozib kelinmoqda. O'quv lug'atlari yaratilmas, o'quvchilar stolida ona tilidan uning yoshiga mos ko'plab o'quv lug'atlari turmas, buning uchun o'quv leksikografiyasi nazariy va amaliy soha sifatida tizimli yo'lga qo'yilmas ekan, ona tili ta'limi o'zining haqiqiy

mohiyatidan begonaligicha qolaveradi"[6]. O'quv lug'atlari akademik lug'atlardan o'zining ixchamligi, muayyan sohani qamrab olishi bilan farqlanadi. Bu borada quyidagi fikrlarni keltirish mumkin: "Akademik leksikografiya bilan qiyoslaganda o'quv leksikografiyasi hajm jihatdan kichik va asosan ta'limiy maqsadga yo'naltirilgan leksikografiya hisoblanadi" [7]. Qayd etish lozimki, o'quv lug'atchiligi borasida muhim tadqiqotlar o'zbek tilshunosligida yetarlicha bajarilmagan. Shu sababli izohli o'qish boshlang'ich sinflarda matn mohiyatini to'liq tushunib olishlarida o'quvchilarning muhim ko'makchisi bo'lib xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Ifodali va izohli o'qish ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni boshlang'ich sinflarda ohangning o'ziga xosligi va leksik vositalarning xususiyatlariga e'tibor qaratish orqali kechadi. Nuqtiiy jarayonda qo'llanishi ohangning darajasiga bevosita bog'liq bo'lgan vositalar bunda juda muhim o'rin tutadi. Masalan, yuklamalarning qo'llanishida ohang alohida ahamiyat kasb etadi. Ohang "nutqning sintaktik ma'nolarni va ekspressiv-emotsional bo'yloqlarni ifodalash uchun xizmat qiluvchi ritmik-emotsional tomoni; ovoznining baland-pastligi"[8] ekan, bunda alohida ohangni talab qiluvchi til birliklari nutq mohiyatini anglash nuqtayi nazaridan dolzarblik kasb etadi. Masalan, joriy 4-sinf uchun mo'ljallangan "O'qish savodxonligi" darsligida H.Hamdanova qalamiga mansub "Qanot qoqqan orzular" hikoyasida ayrim yuklamalar quyidagicha keltirilgan:

"Kimsan mashhur kulol Sobir otaning nabirasi bo'lsa-yu, tanlovda ishtirok etmasa, uyat bo'ladi-ya" [9].

Mazkur gapning ikki o'rinda yuklama qo'llangan bo'lib, ulardan biri ziddlov bog'lovchisi vazifasini bajargan. Shu o'rinda o'zbek tilidagi yuklamalar har qanday holatda,

ya'ni yuklama vazifasida kelganda ham, bog'lovchi vazifasida qo'llanganda ham alohida ohang bilan talaffuz qilinishini qayd etish lozim. Bu yuklamalarning o'zbek tilida so'z urg'usi bilan qo'llanmasligida ham o'z aksini topadi. Boshqacha aytganda, yuklamalardan oldingi qism urg'uli bo'lganligi sababli yuklama urg'usiz holda nutqda voqelanadi. Yuqorida keltirilgan parchadagi yuklamalarning o'ziga xos ohang bilan o'qilishi birinchi holatda ziddlikni, ikkinchi holatda so'roq va taajjubni ifodalaydi.

Xulosa va takliflar. Alohida ohangni talab qiluvchi leksik birliklar sirasiga undov so'zlarni ham kiritish mumkin. Chunki undovalar "his-hayajon, buyruq-xitob, haydash, chaqirish kabi ma'nolarni bildiruvchi, gap bo'laklari bilan grammatik bog'lanmaydigan so'zlar turkumi va sh turkumga oid muayyan so'z" [10:71]ni bildiradi. Undovlarning nuqtiiy voqelanish xususiyati shundayki, uning qanday ma'no ifodalashi talaffuzning darajasiga bog'liq. Undovlarning nuqtiiy voqelanishda alohida ohang talaffuz qilinishi ularning grammatik alohidaligini ham talab qiladi. Bu turkum so'zlari har qanday gap tarkibida boshqa gap bo'laklariga birikmaydi va grammatik jihatdan kengaymaydi. Boshlang'ich sinflarda undovlarning alohida ohang bilan talaffuz qilinishi butun gap mohiyatiga qanday ta'sir qilishi o'quvchilarga tushuntirilishi ularni ifodali o'qish ko'nikmalari rivojlanishiga yordam beradi. Aslida, undovlarning qanday talaffuz qilinishi tilning ijtimoiy mohiyatidan kelib chiqqan holda til egasida shakllana boradi. Ammo ayrim undovlarning talaffuzi o'quvchilarga alohida ifodali o'qish mashg'ulotlari yordamida tushuntirilishi maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR

1. Носкова Е.С. Обучение выразительному чтению младших школьников в процессе работы над лирическим стихотворением // «Инфоурок» - образовательный маркетплейс.
2. Jo'rayev T., Halimov S. Nutq madaniyati. – Samarqand: Tibbiyot ko'zgusi, 2021. – 108 b.
3. <https://lex.uz/acts/-316337> [Elektron manba:] Murojaat sanasi: 20.03.2025.
4. Мамажонов А., Махмудов У. Услуги воспитания. – Фаргона: ФарДУ, 1996. – 47 б.
5. <https://lex.uz/docs/-5013007#-5013028> [Elektron manba:] Murojaat sanasi: 20.03.2025.
6. Менглиев Б. "Она тили"мизни тилшунослик исканжасидан куткарайлик! [Электрон ресурс]. URL: <https://soglom.uz>. Murojaat sanasi: 12.12.2023.
7. Новиков Л. Учебная лексикография и её задачи // Вопросы учебной лексикографии. Под ред. П.Н.Денисова и Л.А.Новикова. Москва: МГУ, 1969. – С.3-11.
8. Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Fan, 2013. – 144 b.
9. Toirova M.E. O'qish savodxonligi. 4-sinf. I qism. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. – Toshkent: Novda, 2023.
10. Ходжиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎзМЭ, 2002.